
VILOYAT HOKIMI XAYRULLO BOZOROV BANGLADESHNING O'ZBEKISTONDAGI FAVQULODDA VA MUXTOR ELCHISI MUHAMMAD MONIRUL ISLOMNI QABUL QILDI

Uchrashuvda Farg'ona viloyati bilan Bangladesh davlati o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar doiralarini kengaytirish, jumladan, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, terini qayta ishlash, AYti sohalarida hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari muhokama etildi.

Uchrashuvda dastlab viloyat rahbari Farg'ona viloyatining iqtisodiy va investitsiyaviy imkoniyatlari, infratuzilma va logistika sharoitlari bilan tanishtirdi. Bangladesh Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy aloqalarni yanada rivojlantirishda hududlararo hamkorlikni faollashtirish muhimligini ta'kidladi.

Muhammad Monirul Islom Farg'ona viloyati va Bangladesh davlati o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalariga to'xtaldi hamda bu boradagi aloqalarni jadallashtirish bo'yicha fikr almashildi. Xususan, elchi to'qimachilik sanoatida birga ishlashga tayyorligini aytib, bangladeshlik mutaxassis va muhandislarni viloyatga yuborishni bildirdi. Shuningdek, charm-poyabzal, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, savdo-sotiq sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, raqamli texnologiyalar bo'yicha viloyatdagি oliy o'quv yurtlari bilan aloqalarni o'rnatish masalalariga to'xtaldi. Bangladeshda farmatsevtika sohasi rivojlanlanganligi, 140 dan ortiq davlatlarga mahsulotlar eksport qilinayotganligi qayd etilib, bu yo'nalishda hamkorlik qilish bo'yicha fikr bildirildi.

Viloyat rahbari barcha sohalarda hamkorlikka tayyor ekanligini bildirib, yaqin kunlarda farg'onalik tadbirkorlar guruhini Bangladeshga yuborishligini ma'lum qildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-09-16 14:41:02